



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-63-119-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli Qarori 6-bandining ikkinchi xatboshisida xususiy sheriklar - O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq tender o‘tkazish va (yoki) xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali aniqlanishi belgilanganligi va shunga asosan tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limini 2023-yil 21-iyundagi 202-02-02/233-sonli xati bilan taqdim etilgan tadbirkorlar va lotlarga oid ma‘lumotlarni hamda qaror ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi muhokamasida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli Qaroriga asosan tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2023-yil 21-iyundagi 202-02-02/233-sonli xati bilan taqdim etilgan tadbirkorlar va lotlarga oid ma‘lumotlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli Qarorining 6-bandining birinchi xatboshisiga asosan davlat sherigi etib-tuman hokimligi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli Qarorining 6-bandining ikkinchi xatboshisida xususiy sheriklar - O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq tender o‘tkazish va (yoki) xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali aniqlanishi belgilanganligi asos uchun qabul qilinsin.

4. Qarorga asosan tumandagi 88 ta ijtimoiy soha jumladan, 47 ta maktablar, 24 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari, 13 ta sog‘liqni saqlash muassasalari va 4 ta madaniyat va sport obyektlarida isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumida issiqlik tizimini davlat-xususiy sherikchilik asosida tashkil etish uchun 6 ta lotlarga taklif etilgan tadbirkorlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.


6. Belgilab qo‘yilsinki, loyihalarni amalga oshirishda davlat sheriklari hamda xususiy sheriklar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-sonli Qarorining 7-bandiga muvofiq vazifa va majburiyatlari bajarilishi ta’minlansin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi rahbari (G.Jumayeva)ga ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya yetilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining o‘rinbosari (U.Raxmatov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2023-yil 27-iyundagi
VI-63-119-8-109-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Angor tumani ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumida issiqlik tizimini davlat-
xususiy sheriklik asosida tashkil etish uchun lotlarga taklif etilgan tadbirkorlar
RO'YXATI**

№	Tadbirkor nomi	STIR	Biriktirilgan ijtimoiy soha muassasalari nomi	Lot raqami
1	"Surxon Eko Products" XK	310 325 579	Tumandagi maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari	1
2	"Beshbuloq-Turon-MSICh" XK	300 604 513		2
3	"Angor-Ta'minot-Savdo-Bazasi" MChJ	305 906 877		3
4	"Shoxida Quruvchi" MChJ	302 634 324		4
5	"Asilabonu Surxon Angor" XK	309 020 554	Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli barcha muassasalar	5
6	"Aka-uka To'rayevlar oilasi" XK	309 489 373	Tumandagi maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli barcha umumta'lim maktablari va tuman madaniyat va sport, musiqa maktabi muassasalari	6